

ABU NASR FAROBIYNING “FOZIL ODAMLAR SHAHRI” ASARI -BUGUNGI KUN YOSHLARINING MA’NAVIYAT MAKTABI SIFATIDA

Hayitov Anvar Isomidin o’g’li

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o’qituvchisi

Azizova Sabina Fahriddinovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti 3-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7243499>

Annotatsiya. Mazkur maqolada “Fozil odamlar shahri” asari orqali bugungi yoshlarimiz egallashi kerak bo’lgan ma’naviy-axloqiy sifatlarni, axloq-odob va insonning aqliy tarbiyasini qanday shakllantirish usullari haqida so’z borgan.

Kalit so’zlar: Farobiy, Fozil odamlar shahri, axloq, odob, ma’naviyat, axloqiy sifatlari, aql, axloqli odam, baxt.

«ГОРОД ДОБРОДЕТЕЛЬНЫХ ЛЮДЕЙ» АБУ НАСРА ФАРАБИ – ДУХОВНАЯ ШКОЛА ДЛЯ СОВРЕМЕННОЙ МОЛОДЕЖИ

Аннотация. В данной статье говорится о том, как сформировать духовно-нравственные качества, нравственное и интеллектуальное воспитание человека, которые должна приобрести современная молодежь через произведение «Город добродетельных людей».

Ключевые слова: Фараби, город добродетельных людей, нравственность, нравы, духовность, нравственные качества, интеллект, нравственный человек, счастье.

ABU NASR FARABI'S "CITY OF VIRTUOUS PEOPLE" IS A SPIRITUAL SCHOOL FOR TODAY'S YOUTH

Abstract. This article talked about the spiritual and moral qualities that today's youth should possess through the work “the city of noble people”, about morality and how to form the mental education of a person.

Keywords. Farabi, the city of noble people, morality, decency, spirituality, moral qualities, intelligence, moral person, happiness.

KIRISH

Mamlakatimizda hozirgi kunda barcha sohalarda tubdan o’zgarishlar bo’lmoqda. Buning asosiy sababi Respublikamiz Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning davlatimizda barcha sohalarni rivojlantirishga katta e’tibor qaratmoqda. Bu e’tiborning amaliy ahamiyatini sohalardagi o’zgarishlar orqali ko’rishimiz mumkin. Mana shu sohalardan biri ta’lim yo’nalishida ham Prezidentimiz tomonidan juda ko’plab ishlar olib borilmoqda. Bu islohotlarning ko’rinishini quyidagi asoslarda uchratishimiz mumkin. 2022 — 2026-yillarga mo’ljallangan yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida[1], 2020-yil 23-sentyabrdagi yangi tahrirdagi “Ta’lim to’g’risida”gi qonunda va boshqa qarorlarda o’z aksini topgan. Ta’lim to’g’risidagi qonunning 5-moddasida ta’lim tashkilotlarida, innovatsion faoliyatni qo’llab-quvvatlash va o’quv dasturlarini innovatsion texnologiyalarini qo’llagan holda amalga oshirish, ta’lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash[2] haqidagi fikrlarni ta’minlash haqidagi fikrlar berilgan. Demak, mana shu qaror va qonunlar mazmunidan shuni tushunish mumkinki, yoshlarimizning ham ta’limiy, ham ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk bo’lishlari muhim hisoblanadi. Ushbu qonunning 4 - moddasida quyidagi bandlari ham o’quvchilarning ma’naviy axloqiy jihatdan komil inson bo’lib yetishishiga xizmat qiladigan

fikrlar berilgan; - ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi; -ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyatlar[2] kabi asosiy prinsiplari ko'rsatib o'tilgan.

METOD VA METODOLOGIYA

Bugungi kunda o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini buyuk adib va allomalarimizning pedagogik qarashlarida, asarlarida va asarlaridagi ko'rsatilgan namunalar orqali shakllantrishini muhim hisoblanadi. Jumladan, buyuk pedagog olimimiz Abu Nasr Farobiyning pedagogik qarashlarida va aynan "Fozil odamlar shahri" asarida bugungi yoshlarimizning axloqiy jihatdan yetuk bo'lishiga doir yetakchi fikrlar berilgan. Farobiyning asarlari bugungi kun o'quvchilarimizning axloqan tarbiyasi va odobli bo'lishida bir qancha fikrlar, hikmatli iboralar, shery matnlar, hikoyalar hamda ibratli hayotiy tajribalarga asoslangan matnlar berilgan[4]. Ushbu fikrlarni tahlil etishimizdan oldin olimning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumotga ega bo'lishimiz lozim.

Abu Farobiy (taxallusi; to'liq nomi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzlug' Tarxon Farobiy)[3]. 873-yil Farob shahrida tug'ilga va 950-yil Damashqda vafot etgan. O'rta Osiyoning mutaffakiri va qomusiy olimlaridan biri bo'lgan. Abu Nasr Farobiy 77-yoshida vafot etgan bo'lsada bir daqiqa ham ilm izlashdan to'xtamagan. Farobiy 160dan ortiq asarlar yozgan. 70 dan ortiq tilni bilgan. Farobiy Yunon falsafasini chuqur bilgani, unga sharhlar bitganligi va jahonga targ'ib qilgani hamda zamonasining ilmlarini puxta o'zlashtirib, fanlar rivojiga ulkan hissa qo'shgani uchun "al Muallim assoniy", ("Ikkinchi muallim"), "Aristoteldan keyin), "Sharq Arastusi" nomlariga sazovor bo'lgan[3]. Aynan ta'lim sifatini oshirishga jiddiy e'tibor berilayotgan hozirgi davrda o'quvchilarni dunyoqarashini shakllantrishda Abu Nasr Farobiyning ma'naviy me'rosida foydalanish maqsadga muvofiqdir. Farobiyning "Fozil odamlar shahri" asari axloqiy va ta'limiy xarakterga ega. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Kaykoviskining "Qobusnoma", Amir Temurning "Temur tuzuklari", Alisher Navoiyning "Mahbub-ul qulub" kabi asarlari tarzida o'ziga hos asarlaridan biri hisoblanadi. Har kimki ilm hikmatini o'rganmagan desa, uni yoshligidan boshlasin, sog'-salomatligi yaxshi bo'lsin, yaxshi ahloq va odobi bo'lsin, so'zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlangan bo'lsin, barcha qonun-qoidalrni bilsin, bilimdon va notiq bo'lsin, ilmli va dono kishilarini hurmat qilsin, ilm va ahli ilmdan mol-dunyosini ayamasin, barcha aniq moddiy narsalar to'g'risida bilimga ega bo'lsin[3]. Farobiy qalamiga oid ushbu fikrni biz pedagoglar o'quvchilarga to'g'ri yetkaza olishimiz kerak. Bundan tashqari Farobiy ta'lim va tarbiya tushunchalariga birinchi ta'rif bergan pedagog olimdir: Ta'lim – so'z va o'rganish bilangina amalga oshiriladi. Tarbiya – esa amaliyot, ish-tajriba bilan amalga oshiriladi. Ta'lim-tarbiya ikki yo'l bilan amalga oshiriladi: qanoatbaxsh, ilxomlantiruvchi so'zlar va majbur etish[3]. Ushbu berilgan ta'rifni ayni vaqtda ham o'qituvchilarimiz amal qilsa bo'ladi. O'quvchini yaxshi bilim olishi uchun avval unga ilxomlantiruvchi so'zlar bilan murojaat qilishimiz va undan so'ng ilm o'rgatishimiz muhim hisoblanadi. Tarbiya berishimizda ham avval o'zimiz namuna bo'lishimiz va keyin o'rgatishimiz kerak.

TADQIQOT NATIJASI

Quyida "Fozil odamlar shahri" asaridan namunalar ko'rib o'tamiz va tahlil qilamiz.

Har bir inson yaxshi odob va axloqqa ega bo'lishi, aytgan so'zini bajarishi, yomon ishlarni qilmasligi, axloq qonun-qoidalarini bilishi va ularga qarshi chiqmasligi lozimligi haqida

ham ta'kidlagan. "Ilmi va o'zidan katta insonlarni doimo hurmat qilishi o'zi bilgan ilmini yon atrofdagilarga o'rgatishi kerakligini uqtrib borish kerak" degan fikrlar bayon etilgan [3].

Aqlli deb shunday kishilarga aytiladiki, ular fazilatli, o'tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan zarur narsalarni kashf va ixtiro etishda zo'r iste'molga ega: yomon ishlardan o'zini chetga olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil deydilar. Yomon ishlarni o'ylab topish uchun zexn idrokka ega bo'lganlarni aqlli deb bo'lmaydi, ularni ayyor, aldoqchi degan nomlar bilan atamoq lozim[5].

Aqlli bola o'z fazilatlarini bilan ahloq-odobi bilan ajralib turadi. Aqlli bola har ishda otanalariga va barcha yaqinlariga hurmatda bo'ladi. Ustozlarini aytgan gaplarini va berilgan vazifalarini vaqtida bajarib a'lo baholar olishga intiladigan bolalarni axloqli o'quvchilar deyishimiz mumkin[3]. Aqlsiz bola yomon harakatlarni qilishi, ota-onalarini, ustozlari va yaqinlarini hurmat qilmaydigan ularni aytganlarini berilgan vazifalarini bajarmaslik bu odobsiz bolalarga tegishli. Farobiy mehr-shafqatlilik va axloqlilik tushunchalari haqida gapirib, sohibi qonun inson tabiatidagi bu xislatlarni alohida inobatga olishi zarurligini va shu xislatlarning ta'sir kuchiga qarab ish yuritish joizligini eslatib o'tadi, toki qonun chiqaruvchi qonunni qullarcha itoatkorlikni talab qilish yo'li bilan emas, balki erkin ravishda qabul qildirsa o'sin[3].

Yuqoridagi fikrlarni o'quvchilarga singdirish, aqlli va aqlsiz bolalarni qanday bo'lishini o'rgatishimiz va ulardan o'zlariga ibrat olishlariga va barcha yaqinlariga nisbatan hurmatda bo'lishga undashimiz mumkin.

Farobiy o'z hikoyalarida eslatib o'tgan forslar misolida, hokimiyatni hokimdan o'g'liga o'tishi misolida va dengizdagi urushdan qanday o'ljalar olingani misolida qullarcha itoatkorlikning illatli ekanligini ko'rsatadi. Bu yerda bir shahardagi dushman qanday qilib do'st bo'lib qolgani haqidagi voqeani eslatib o'tish o'rinlidir. Qonun chiqaruvchi qo'l ostidagilarning do'stlik tuyg'ulari mavjudligini kuzatgan holda qonunning kamchilik va illatlardan xoli bo'lishini ta'minlashi uchun joriy etilgan qonunlarini chuqur ishonch va bilim bilan barkamol etishi zarur. [5].

Farobiy axloqiy fazilatlarini qanday o'zlashtirish mumkinligini tushuntiradi. Bunday yaxshi odatlar vaqtincha o'zgargan bo'ladi, chunki jamiyatlar va barcha odamlarda odatlar uzoq muddat o'tib o'zgartiriladi. Adolatli, pok, jasur bo'lishga odat qilish, shu bilan birga, yomon qiliqlardan qutulish uchun ham ma'lum muddat o'tishi kerak. Bu vaqt davomida inson o'zining yomon qiliqlaridan voz kecha oladi. Agar odamda tug'ma, kuchli g'urur tuyg'ulari bo'lmasa, u holda o'sha odam o'z ruhini mashq ila tarbiyalashi zarur, chunki o'zi sevgan insonning ko'p jinoyatlarini sezmaslik odamning tug'ma xislatidir. Zero shunday ekan, shahvoniy xohishlarga erk bermaslik uchun albatta, kuchli g'urur bo'lishi kerak. Insonni halokatga olib boradigan narsalarni ruhiga ravo ko'rmaslik uchun bunday hollarda g'azabdan ham ijobiy foydalana bilish va ruhni doimo o'zidan ko'ngli to'lmaslikka o'rgatish kerak. Aflotun aytadiki, tarbiyali odamlar o'z ruhlarini doimo quvonish, ortiqcha kulish, qattiq xafa bo'lish, ortiqcha kayg'urish kabi holatlarda mo'tadillik doirasidan chiqmaslikka majbur qila olishlari kerak. Aflotunning aytishicha, odamlar ma'naviy fazilatlariga erishishni istab, iltijo qilib, ularni o'zlashtirishga e'tibor berishlari kerak, toki axloq qonuniy, maqtovlarga sazovor va ilohiy bo'lib qolsin[3].

MUHOKAMA

Mutafakkir olim "xulq-atvori, axloqi ham o'z kasbiga loyiq bo'lishi kerak. Shuningdek, o'z xalqining ra'yini va o'z xalqida bo'lgan eng yaxshi urf-odatlarini qattiq tutgan bo'lishi kerak" ligini alohida ta'kidlab o'tadi[3].

O'zida o'n ikki tug'ma xislatni birlashtirgan kishigina **axloqli odam** bo'la oladi: [3]
(birinchidan), bunday odamning barcha a'zolari shu darajada mukammal taraqqiy etgan bo'lishi zarurki, u bu a'zolari bilan bajarmoqchi bo'lgan barcha ishlarini osonlik bilan amalga oshira olsin;

(ikkinchidan), barcha masalani, muhokama va mulohazani tezdan va to'g'ri tushuna oladigan, uning ma'nosini anglay oladigan, so'zlovchining maqsadi, aytilgan fikrining chinligini tezda payqay oladigan bo'lsin[3];

(uchinchidan), xotirasi juda baquvvat bo'lsin, ko'rgan, eshitgan, sezgan narsalarining birortasini ham esidan chiqarmay, yodida saqlab qoladigan bo'lsin; (to'rtinchidan), zehni shu darajada tez va o'tkir bo'lsinki, biror narsaning alomatini sezishi bilan bu alomat nimani bildirishligini tezdan bilib olsin;

(beshinchidan), so'zlari aniq bo'lsin, fikrini va aytmoqchi bo'lgan mulohazalarini ravon va ravshan bayon eta olsin; (oltinchidan), bilish va o'qishga muhabbati bo'lsin, o'rganmoqchi bo'lgan bilimni charchashni sezmasdan osonlik bilan o'zlashtira olsin;

(yettinchidan), ovqatlanishda, ichimlik iste'mol etishda ochko'z bo'lmasin, tabiati qimor o'yinlarini o'ynashdan uzoq bo'lsin va ular keltiradigan xursandlikdan jirkanadigan bo'lsin;

(sakkizinchidan), haqiqatni va haqiqat tarafdorlarini sevadigan bo'lsin, yolg'on va yolg'onchilarga nafrat bilan qaraydigan bo'lsin;

(to'qqizinchidan) ruhining g'ururi va vijdonini qadrlaydigan bo'lsin, uning ruhi o'z tabiati bilan past ishlardan yuqori va olijanob ishlarga ishlatiladigan bo'lsin;

o'ninchidan), dirham, dinor va shu kabi turmush buyumlariga jirkanish bilan qarasin;

(o'n birinchidan), o'z tabiati bilan adolatni sevadigan va adolat uchun kurashuvchilarga, adolatsizlikka, jabr-zulm o'tkazuvchilarga nafrat bilan qaraydigan bo'lsin, o'z odamlari va boshqalarga adolatli bo'lsin, go'zal va yaxshi hisoblangan narsalarni barchaga taqdim etgan holda odamlarni adolatga targ'ib etadigan, adolatsiz oqibatlarini yo'qotadigan, ularga yo'l qo'ymaydigan bo'lsin;

(o'n ikkinchidan), adolatli bo'lsin, ammo qaysar bo'lmasin, adolat oldida qaysarlik qilib, o'zbilarmonlikka berilmasin, lekin har qanday adolatsizlik, pastkashlik oldida lafzli bo'lsin, o'zi zarur deb bilgan narsasini amalga oshirishda qat'iylik ko'rsatsin, qo'rqmas, jasur bo'lsin, qo'rqish va ojizlikni bilmasin. Haqiqiy baxtga erishish maqsadida o'zaro yordam qiluvchi kishilarni birlashtirgan shahar – fazilatli shahardir, baxtga erishish maqsadida birlashgan kishilar jamoasi – fazilatli jamoadir[3]. *Baxtga erishish maqsadida o'zaro yordam bergan xalq – fazilatli xalqdir. Shu tartibda barcha xalqlar baxtga erishish uchun bir-birlariga yordam bersalar, butun yer yuzi fazilatli bo'ladi*[3].

Pedagog olimning fikrlarida insonlar bir-biriga nisbatan yordam berishi, og'ir kunlarda yordamini ayamastligini ta'kidlab o'tgan. Biz esa bo'lajak pedagog sifatida boshlang'ich sinf o'quvchilariga bu kabi sog'lom, to'g'ri va xatosiz fikrlarni singdirishimiz lozim. Tinchlik, saodat, mehribonlik, sadoqat, mehr-muruvvat ulashish, rostlik, qanoat, sabr tushunchalarini o'quvchilarga tushuntirish va bu tushunchalarni qadriga yetish kabi tuyg'ularni singdirish biz bo'lajak pedagoglarning asosiy vazifalari hisoblanadi[9]. Tinchlik nimaligini bilgan o'quvchilar Vatanni qadriga yetadi va uni doim asrab avaylaydi.

XULOSA

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib "Fozil odamlar shahri" asarining mazmunini boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'rgatishda quyidagi natijalarni olamiz:

- axloqiy sifatlar shakllanadi;
- o'z o'rtog'lariga nisbatan hurmati oshadi va ular bilan ijtimoiylashadi;
- mehr-oqibat, hurmat, do'stlik kabi sifatlar shakllanadi;
- egallangan axloqiy sifatlar malakasi orqali jamiyat bilan muloqotga kirishadi[6];
- barcha yaqinlari va do'stlariga yordam berish hissi uyg'onadi;
- ta'lim tarbiya beruvchi ustozlarni yanada hurmat qilish hissi uyg'onadi hamda qadriga yeta boshlaydi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib ko'rishimiz mumkinki, insonlarda ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllanishida Abu Nasr Farobiyning "Fozil odamlar shahri" asari muhim rol kasb etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy-axloqiy jihatdan komil inson bo'lishida asarga nisbatan quyidagilarni fikrlarni tavsiya etaman;

- o'quvchi va o'qituvchilar "Fozil odamlar shahri" asari bilan tanishishini;
- ta'lim muassasalari kutubxonalarida shu mazmundagi kitoblarni ko'paytirishni;
- "Fozil odamlar shahri" asaridan maktab darsliklariga ham ko'proq namunalar kiritishni;
- ta'lim muassasasida o'tkaziladigan tarbiyaviy ishlarda Farobiy asarlarining mazmunini singdrilishi;

Allomalarimizni ibratli so'zlarini boshlang'ich sinf kitoblariga kiritish va o'quvchilarni ushbu ibratli so'zlar asosida tarbiyalash komil inson qilib voyaga yetkazishimizda o'z hissasini qo'shadi desam mubolag'a bo'lmaydi[8]. O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyali qilib ulg'aytirishda bu kabi pedagog olimlarimizning asarlaridan foydalanish bugungi kunda ham davom etmoqda.

REFERENCES

1. 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi pf-60-son.
2. "Ta'lim to'g'risida" gi qonun. O'zbekiston Respublikasining qonuni, 23.09.2020 yildagi o'rq-637-son.
3. Abu nasr farobiy "Fozil odamlar shaxri" tarjimonlar Abdusodiq Irisov, Mahkam Mahmudov, Urfon Otajon. mas'ul muharrirlar M.Xayrullaev, M.Jakbarov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – 320 b.
4. Xayrullayev M.M Farobiy va uning falsafiy risolalari. Toshkent 1963
5. Abu Nasr Farobiyning "Fozil odamlar shahri". Toshkent, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti 1993.
6. Hayitov, A. I., & Miltikboyeva, Z. (2022, may). Methods of organization of native language classes in primary classes on the basis of interactive methods. in *e conference zone* (pp. 11-13).
7. Hayitov, A. I., & Abdushukurova, D. (2022). Effective ways to organize mother tongue lessons in primary classes on the basis of interactive techniques. *Conferencea*, 30-32.
8. Bakhtiyarovna, M. Z. (2021). Integrated teaching of primary education. *Galaxy international interdisciplinary research journal*, 9(12), 1332-1336.
9. Hayitov, A. Integrated approach to improving pedagogical abilities of future primary education teachers. *journalnx*, 197-201.

10. Akhmedova, M., Inoyatova, Z., Ergasheva, G., Aripova, G., & Kayumova, S. (2020). Primary classes based on media technologies represent an international rating system for teacher control. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(4), 3872-3885.
11. Dzhuraev R. K., Karakhanova L. M. Model of the organization of research activities of 10th grade students in teaching physics and biology // *International journal of discourse on Innovation, integration and education*. – 2021. - Jild 2. – №. 01. – P.296-300.
12. Мусахоновна Қ. Л. УЗЛУКСИЗ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА БИОЛОГИЯ ФАНИДАН САМАРАДОРЛИККА ЭРИШИШДА ЭЛЕКТРОН ТАЪЛИМИЙ ВОСИТАЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АСОСЛАРИ // *Science and innovation*. – 2022. – Т. 1. – №. В3. – С. 577-585.
13. Juraev R. X., QORAXANOVA L. M. fizika va biologiyani o'qitishda 10-sinf o'quvchilarining tadqiqot faoliyatini tashkil etish modeli // *innovatsiya, integratsiya va ta'lim bo'yicha xalqaro discourse jurnali*. – 2021. - Jild 2. – №. 1. – P.295-299.
14. Karakhonova L. M. Using the electronic educational resources in biology lessons // *INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS OF PHILISOPHY, PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY*. – 2019. – С. 35-39.
15. Karakhanova L. M. USE OF MEDIERE RESOURCES IN THE EDUCATIONAL PROCESS OF BIOLOGY IN SCHOOLS // *International Scientific Review of the problems of pedagogy and psychology*. – 2018. – С. 68-70.
16. Jurayev R. K., Karakhanova L. M. Scientific And Methodical Bases Of The Use Of Electronic Educational Resources In Teaching Biology In General Educational Schools // *International Journal of Advanced Science and Technology*. – 2020. – Т. 29. – №. 8. – С. 3500-3505.
17. Musokhonovna K. L. ICT-As a means of achieving new educational results in teaching natural disciplines in secondary schools // *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*. – 2021. – Т. 11. – №. 10. – С. 315-321.
18. Juraev R. X., Karaxonova L. M. media ta'limi maktab o'quvchilarining ta'lim sifatini oshirish omili sifatida // *hayot davomida ta'lim: barqaror rivojlanish uchun uzluksiz ta'lim*. – 2013. - S. 322-323.
19. Караханова Л. М. DEVELOPMENT OF STUDENTS'KNOWLEDGE BASED ON THE USE OF 3D EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE BIOLOGY EDUCATION // *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*. – 2020. – №. 2. – С. 55-59.
20. Musaxonovna K. L. General secondary schools requirements for the introduction of informed educational resources for the development of natural sciences // *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*. – 2022. – Т. 12. – №. 5. – С. 855-860.
21. Juraev R. X., Karaxonova L. M. iqtidorli bolalarni ta'lim muassasalari tomonidan pedagogik qo'llab-quvvatlash // *fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*. – 2022. - Jild 3. – №. 4. - 66-70 betlar.
22. Karaxonova L. M. tabiiy fanlarni o'qitishda zamonaviy ochiq ta'limda yangi interaktiv elektron manbalar // *ta'lim fanlari bo'yicha akademik tadqiqotlar*. – 2021. - Jild 2. – №. CSPI conference 1. - P. 1303-1305.

23. Karaxanova L. M. Development of students' knowledge based on the use of 3d educational technologies in the Biology education //Таълим ва инновацион тадқиқотлар.- Вухоро. – 2020. - 55-59 betlar.
24. Сафарова Р. Г. и др. Ўқувчи-ёшларни оммавий маданият хуружларидан химоя қилишнинг назарий-методологик асослари. – 2017.
25. Kharaxanova L. M. SPECIFIC ASPECTS OF MEDIA EDUCATION AND ITS USE IN HIGH SCHOOLS //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. CSPI conference 3. – С. 278-284.
26. Musakhonovna K. L. Peculiarities of using modern educational tools to increase the effectiveness of teaching the natural sciences and direct students to independent activities //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2022. – Т. 11. – №. 5. – С. 182-191.
27. Kh D. R., Karakhonova L. M. Media education as a factor of increasing the quality of teaching schoolchildren //Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. – 2013. – Т. 11. – №. 2 (eng). – С. 287-288.
28. Караханова Л. МУЛЬТИМЕДИЙНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ НА УРОКАХ ЗООЛОГИИ //Збірник наукових праць Уманського державного педагогічного університету. – 2011. – №. 1.